IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

CHINGIZ AYTMATOVNING “MANQURT” RIVOYATIDA QADRIYATLAR TALQINI

Rayxonova Aziza Obid qizi

Navoiy Davlat Universiteti Tillar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Tursunova Nasiba Hamrayevna

Navoiy Davlat Universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqola Chingiz Aytmatov asarlarining badiiy qiymati va folklorizmlarning o‘rinlashuvi haqidagi mulohazalariga qaratilgan. Shuningdek, asrda rivoyat janriga xos xususiyatlar bilan mavjud qadimiy qadriyatlarning tahliliga ham guvoh bo‘lamiz.

Kalit so‘zlar: marosim, rivoyat, qadriyat, marhum, manqurt, mergan, asotir.

Abstract: This article is focused on the artistic value of Chingiz Aytmatov's works and his comments on the location of folklorisms. We also witness the analysis of the ancient values existing in the century with the characteristics of the narrative genre.

Key words: ritual, narration, value, deceased, manqurt, sniper, legend.

Kirish

Rivoyatlar – xalq ijodining teran falsafa va ma`no-mazmunga ega bo‘lgan ulkan boyligi hisoblanadi. Rivoyatda ko‘pincha tarixiy xotira va xalqning donishmandligi, tabiat hodisalari, tabiiy ofatlar haqidagi voqealar keltiriladi. “Asrga tatigulik kun” asaridagi “Manqurt” rivoyati, romanning eng teran ramzidir.Manqurt inson o‘zligidan, dinidan, tilidan, bor-budidan ajralgan kimsadir.Shu bois Ch.Aytmatov: “Xotirasi bo‘lmagan, tarixi bo‘lmagan, ko‘hna asotirlar, afsonalarda, klassik adabiyotda aks etgan ma`naviy biografiyasi bo‘lmagan odam-ruhan qashshoqlikka mahkum va bunday odam murakkab zamonamiz hayotini anglashga ojizdir”,- degan edi. [1]

Har bir millat o‘ziga xos qadriyatlariga, an`analariga, urf-odat va marosimlariga ega. Yozuvchi Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun”romanidagi “Manqurt” rivoyatida ana shunday qadriyatlar xususida so‘z yuritilgan. Rivoyatda manqurtlik voqeasi bilan bir qatorda ana shu manqurtga aylantirilgan yigitning ajdodi bo‘lmish nayman urug’ning qadriyatlari xususida fikr yuritilgan. Nayman ulusining mard o‘g’lonlaridan biri Nayman onaning farzandi Jo‘lamon ismli mergan yigit ko‘pchilik qatori o‘z qabilasini, vatan tuprog’ni himoya qilish uchun jangga otlanganlardan biridir. Asarda yozuvchi Nayman ona siymosida onaizorning farzandiga bo‘lgan cheksiz muhabbatini, ummon singari bepoyon irodasini tasvirlaydi. Yozuvchi adabiy asar yaratar ekan, avvalo u qanday mavzuda bo‘lishidan qat`iy nazar, avvalo o‘sha xalq urf-odatlarini, an`analarini insoniylik qadr-qimmatlarini asarga singdirishga va asarning jozibadorligini oshirishga harakat qiladi.

Bu qabilada inson qadr – qimmati qanchalik aziz ekaligini yozuvchi shunday ta`riflaydi: “Bu elat odatida halok bo‘lganlarni jang maydonida qoldirib ketish nomus sanaladi”. [2] Qarindosh

[1]“Asrni qaritgan kun” Toshkent-2020-5-bet

[2] “Asrni qaritgan kun” Toshkent 2020-162-bet

urug'lari jangchining jasadini olib kelishlari lozim. Ana shu jungjang qabilasi bilan bo'lgan shavqatsiz jangda Nayman onaning o'g'li dom-daraksiz yo'qoladi. Uni tirigi ham o'ligi ham topilmaydi. "Jangchining jasadini izlab naymanlar necha kunlab dala yo'llarini kezib chiqadilar. Biroq na marhumning jasadini, na olib qochgan otini, na tushirib qoldirgan qurol-yarog'ini, na boshqa biron, belgi alomatini topa oldilar". Mana shu odatlarning shu xaql qadriyatlarining qanchalik oliyhimmat ekanligini ko'rsatadi. Yoki yosh jangchining Sario'zak cho'lida dafn etilmay qolib ketgan o'g'lining dardu- hasratiga chidolmagan. Xotin-halajlar erlari va og'a - inilari sha'niga tana toshlarini yog'diradilar: "Uning kuzlarini quzg'unlar chuqidi, shoqollar gushtini burdalab ketdi, endi sizlar qaysi yuz bilan el orasida bosh kutarib yurasizlar!" Nayman ona o'sha manqurt o'g'lini topish ilinjida Sario'zakdek bepoyon cho'lga yakka uzi Oqmoya nomli tuyasi bilan mushtdek yuragini dunyo qadar keng qilib yo'lga chiqadi.

Shuningdek, yozuvchi Nayman ona o'g'lini qidirib yo'lga otlanganini hech kimga sezdirmay faqatgina qaynisinglisiga qarindosh urug'larinikiga mehmonga ketayotganligini undan so'ng qipchoqlar manziliga hazrati Yassaviy maqbarasini ziyorat qilib kelishini aytadi. Bu bilan yozuvchi o'sha xalq uchun Hazrati Yassaviy ruhiga e`tiqod ya`ni buyuk ajdodlar ruhini ziyorat qilish shu xalqning milliy qadriyatlarga nisbatan hurmatini ko'rsatadi.

Yoki o'g'lini topgandan so'ng, uni manqurtga aylantirilganini ko'rgan onaning ahvolini tasavvur qiling. Shunday vaziyatda uning kuylagan mashhur marsiyasi butun Sario'zak cho'lini larzaga soladi. Biroq, bu nola faryod manqurt o'g'lining to'pig'iga ham chiqmaydi. Ona har qancha harakat qilmasin o'zligini unutgan o'g'liga o'tmishini eslata va uning tirik murdaga aylangan, tosh metin singari katta qalbini erita olmaydi. Faqatgina onaning o'g'liga aytgan allasidan so'ng manqurt o'g'lining yuzida iliqlik nurlari paydo bo'ladi. Bunday ko'rinadiki, yozuvchi o'z o'rnida alla, marsiya singari xalq og'zaki ijodining bir qancha turlaridan unumli foydalangan.

Xulosa qilib aytganda, adib bugungi avlodning ana shunday o'zligini yoqotgan, lekin qo'lidan hamma ish keladigan vakillarni manqurtga o'xshatadi. O'zligini bilmaydigan bu avlod romanda o'z millatdoshlarini "xalq dushmani" sifatida qamab, o'ldirib yuborib huzur qiladi. Asardagi shu kunning dolzarb hodisalari xalq og'zaki ijodi orqali yetib kelgan afsonalar, rivoyatlar bilan qorishib ajib bir orginallikni tashkil etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Aytmatov, Ch. Asrga tatigulik kun (I dolshe veka dlitsya den). – Moskva: Sovetskiy pisatel, 1981. – 416 b
2. Abdurahmanova, D. Chingiz Aytmatov asarlarida milliy qadriyatlar talqini. – Toshkent: Fan, 2018. – 210 b.
3. Karimov, M. Milliy o'zlik va tarixiy xotira Aytmatov asarlarida. // Adabiyotshunoslik izlanishlari. – 2022. – №1. – B. 70–76.
4. http://www.ziyouz.com
5. http://www.ziyonet.uz